

---

## YOZYOVON TUMANI SOLIQ INSPEKTSIYASIGA YANGI RAHBAR TAYINLANDI



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi soliq qo'mitasi raisining buyrug'iga asosan shu paytgacha Farg'ona viloyati soliq boshqarmasi sho''ba boshlig'i vazifasida ishlab kelayotgan Yusufjon Komilov Yozyovon tumani soliq inspeksiya boshlig'i etib tayinlandi.

Farg'ona viloyati soliq boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Madaminjon Akbarov soliq qo'mitasi raisi buyrug'ini o'qib eshittirib, tuman soliq inspeksiya boshlig'i Yusufjon Komilovni tuman sektorlari rahbarlariga tanishtirdi.

Tuman hokimi Dilshodjon Djalilov Yusufjon Komilovni mas'uliyatli lavozim bilan tabriklab, kelgusi ishlariga omad tiladi.

Shu paytgacha tuman soliq inspeksiya boshlig'i rahbarlik qilgan Avazbek Axunov Quva tumani soliq inspeksiya boshlig'i etib tayinlandi.

-----

Yusufjon Komilov 1989 yil 2 oktyabrda Yozyovon tumani Qo'rg'oncha mahallasida tug'ilgan.

Ma'lumoti oliy. 2013 yili Farg'ona Davlat universitetini bakalavr, 2016 yili Toshkent Moliya institutini magistraturasini tamomlagan.

Mehna faoliyatini 2008 yili oddiy ishchilikdan boshlagan. 2016 yildan tuman soliq inspeksiya boshlig'i turli vazifa va lavozimlarda ishladi. 2020 yildan viloyat soliq boshqarmasida inspektor, katta inspektor, sho''ba boshlig'i vazifalarida ishladi.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi soliq qo'mitasi raisi buyrug'iga asosan Yozyovon tumani soliq inspeksiya boshlig'i lavozimiga tayinlandi.

Yozyovon tumani hokimligi axborot xizmati.

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#),

2023-09-26 06:35:02